SHUKUR XOLMIRZAYEVNING "YASHIL NIVA" HIKOYASIDA SHAXSGA SIG'INISH VA QO'RQUV PSIXOLOGIYASI

Qamariddinov Kamoliddin Qamariddin o'g'li
Kattaqo'rg'on davlat pedagogoka instituti
filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti stajyor-o'qituvchisi
E-mail: qamariddinov11@gmail.com
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.22828605

Annotatsiya. Mazkur tezisda Shukur Xolmirzayevning "Yashil Niva" hikoyasida shaxsga sig'inish hodisasi va uning inson ruhiyatida shakllantiradigan qo'rquv psixologiyasi tahlil qilinadi. Asarda sho'ro tuzumi davridagi amaldorlar hokimiyati, mansabdor shaxs oldidagi itoatkorlik, andisha niqobi ostidagi qo'rquv hamda uning inson ongida uzoq vaqt saqlanib qolishi badiiy jihatdan yoritilgan. Tadqiqotda bosh qahramonning ruhiy kechinmalari, amaldor obrazi va yashil "Niva" avtomobilining ramziy-badiiy funksiyasiga e'tibor qaratiladi. Hikoya yakunida amaldorning hokimiyati tugagan bo'lsa-da, qahramonning yashil "Niva"ni ko'rganida hamon qo'rquvni his qilishi shaxsga sig'inishning inson ruhiyatida qoldirgan chuqur izini namoyon etadi.

Kalit so'zlar: Shukur Xolmirzayev, "Yashil Niva", shaxsga sig'inish, qo'rquv psixologiyasi, ruhiy qaramlik, itoatkorlik, amaldor hokimiyati, badiiy ramz.

Аннотация. В данной статье анализируется феномен культа личности и психологического страха, формирующегося в психике человека, на материале рассказа Шукура Холмирзаева «Зеленая Нива». В произведении художественно освещаются власть чиновников советского периода, покорность перед должностным лицом, страх под маской деликатности и его длительное сохранение в сознании человека. В исследовании уделяется внимание душевным переживаниям главного героя, образу чиновника и символико-художественной функции автомобиля «Нива». Тот факт, что даже после утраты чиновником власти герой продолжает испытывать страх при виде зеленой «Нивы», демонстрирует глубокий след культа личности в человеческой психике.

Ключевые слова: Шукур Холмирзаев, «Зеленая Нива», культ личности, психология страха, психологическая зависимость, покорность, власть чиновников, художественный символ.

Abstract. This article analyzes the phenomenon of the cult of personality and the psychology of fear formed in the human psyche based on Shukur Kholmirzayev's short story "The Green Niva". The work artistically depicts the authority of officials during the Soviet era, submissiveness before authority, fear masked as tactfulness, and its long-term retention in the human mind. The research focuses on the mental experiences of the main character, the image of the official, and the symbolic-artistic function of the green "Niva" car. Although the official's power ends at the conclusion of the story, the character's continued fear upon seeing the green "Niva" reveals the deep mark left by the cult of personality on the human psyche.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Keywords: Shukur Kholmirzayev, "Green Niva", cult of personality, psychology of fear, psychological dependence, submissiveness, official authority, artistic symbol.

Kirish. Shaxsga sig'inish insonning mustaqil fikrlashi va erkin qaror qabul qilishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-psixologik hodisadir. Bunday muhitda mansabdor shaxsning mavqeyi haddan tashqari ulug'lanib, unga qarshi fikr bildirish qo'rquv bilan bog'lanadi. Natijada tashqi majburlash asta-sekin insonning ichki ruhiy holatiga aylanadi [1].

Shukur Xolmirzayevning "Yashil Niva" hikoyasida ushbu jarayon oddiy hayotiy vaziyatlar va qahramonning ichki kechinmalari orqali ochib beriladi. Yozuvchi katta ijtimoiy muammoni birgina amaldor obrazi bilan cheklamay, uning odamlar ongida yaratgan ruhiy ta'sirini ham ko'rsatadi. Shu jihatdan hikoyada shaxsga sig'inishning eng muhim oqibatlaridan biri qo'rquvning inson ongiga singib ketishi masalasi alohida ahamiyat kasb etadi [4].

Adabiyotlar tahlili. Adabiyotshunoslikda shaxsga sig'inish va totalitar tuzumning inson ruhiyatidagi asoratlari masalasi turlicha yoritilgan. I. Mirzayev erkin so'z mas'uliyati va uning ijtimoiy muhitdagi o'rnini tadqiq etgan bo'lsa [1], D. Quronov badiiy asarda psixologik tasvir va qahramon ruhiyatini tahlil qilishning nazariy asoslarini ko'rsatib o'tgan [2]. Shuningdek, Q. Yo'ldoshev va M. Yo'ldosheva badiiy tahlil usullari orqali Shukur Xolmirzayev asarlaridagi yashirin ma'no va ramziy katlamlarni ochib berishga alohida e'tibor qaratishgan [4]. Mazkur tadqiqotlar "Yashil Niva" hikoyasidagi ruhiy qaramlik va qo'rquv psixologiyasini chuqur tahlil qilish uchun nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda badiiy-psixologik tahlil, hermenevtik va psixoanalitik metodlardan foydalanildi. Hikoyadagi detal va ramzlarning (xususan, yashil "Niva" avtomobili) badiiy-funksional vazifasini aniqlashda tiplogik hamda obyektiv-analitik yondashuvlar qo'llandi. Qahramonning ichki monologlari va xulq-atvori orqali ijtimoiy-ruhiy qaramlikning psixologik ildizlari ochib berildi.

Tahlillar va natijalar. Hikoyaning bosh qahramoni — ziyoli o'qituvchi. U o'zini mustaqil va mard inson sifatida ko'rsatishga intiladi. Biroq amaldorning mavqeyi oldida uning ichki qo'rquvi ustun keladi. Qahramon yo'lda direktorning "Yashil Niva" avtomobili ortidan uzoq vaqt imillab yurishga majbur bo'ladi va bu holatini andisha bilan izohlaydi.

Bu yerda andisha tushunchasi alohida psixologik mazmun kasb etadi. Odatda andisha ijobiy axloqiy fazilat sifatida tushunilsa-da, hikoyada u qahramonning o'z qo'rquvini oqlash vositasiga aylanadi. Ya'ni qahramon o'zining amaldor oldidagi ojizligini "odob", "andisha" kabi tushunchalar bilan niqoblaydi. Yozuvchi shu orqali jamiyatda shakllangan itoatkorlik psixologiyasini ochib beradi [2].

Inspektorning "Xo'jayin "juda odobli bola ekan,"— dedilar" [3] degan gapi ham ana shu holatga kinoyaviy munosabatni ifodalaydi. Bu o'rinda "odobli" bo'lish oddiy ma'nodagi xushmuomalalikdan ko'ra, mansabdor shaxsga qarshi chiqmaslik, uning mavqeyi oldida o'zini tiyish ma'nosini anglatadi. Demak, shaxsga sig'inish muhitida axloqiy tushunchalarning mazmuni ham hokimiyat talabi asosida o'zgarib boradi.

Hikoyadagi eng muhim badiiy detal — "Yashil Niva" avtomobilidir. Dastlab u oddiy transport vositasi sifatida namoyon bo'lsa, voqealar rivoji davomida amaldorning hokimiyati va mavqeini ifodalovchi ramzga aylanadi. Qahramon uchun "Niva"ni ko'rish amaldorning o'zini ko'rish bilan teng ruhiy ta'sir uyg'otadi. Shu tariqa qo'rquv muayyan shaxsdan uning ramziga ko'chadi. Bu holat hikoyaning psixologik qatlamini yanada chuqurlashtiradi. Chunki amaldorning bevosita tahdidi

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

bo'lmagan vaziyatda ham qahramon qo'rquvni his qiladi. Demak, qo'rquv tashqi bosim natijasida yuzaga kelib, keyinchalik inson ongida mustaqil ravishda yashaydigan ruhiy holatga aylangan.

Hikoya yakunida direktor partiyadan o'chirilib, mansabidan ayriladi. Shu tariqa uning siyosiy va ma'muriy hokimiyati barham topadi. Biroq Shukur Xolmirzayev tashqi hokimiyatning tugashi bilan ichki qo'rquv ham yo'qolib ketmasligini ko'rsatadi. Muallifning "hali-hamon... yashil Nivani ko'rsam, yuragim orqamga tortib ketadi" [3] — degan iqrori asarning asosiy psixologik xulosasini ifodalaydi.

Eng e'tiborli jihati shundaki, avtomobilni endi amaldorning o'zi emas, oddiy o'smir boshqarayotgan bo'ladi. Shunga qaramay, qahramonning ruhiy reaksiyasi o'zgarmaydi. Bu holat shaxsga sig'inish natijasida yuzaga kelgan qo'rquvning tashqi sababdan uzilib, inson xotirasi va ongida mustahkamlanib qolganini ko'rsatadi. Shunday qilib, "Yashil Niva"da amaldorning hokimiyati vaqtinchalik hodisa, undan qolgan qo'rquv esa uzoq davom etuvchi ruhiy jarayon sifatida talqin qilinadi.

Xulosa. Shukur Xolmirzayevning "Yashil Niva" hikoyasi shaxsga sig'inishning inson ruhiyatiga ta'sirini ochib beruvchi muhim badiiy asardir. Unda amaldor hokimiyati, unga nisbatan shakllangan itoatkorlik va qo'rquv oddiy hayotiy vaziyatlar orqali badiiy-psixologik jihatdan yoritilgan.

Asarning asosiy g'oyaviy xulosasi shundan iboratki, hokimiyat tugashi bilan uning inson ruhiyatidagi izi darhol yo'qolmaydi. Shaxsga sig'inish insonni nafaqat tashqi jihatdan itoatkor, balki ichki jihatdan ham qaram qilib qo'yishi mumkin. Shu ma'noda "Yashil Niva" insonning ruhiy erkinligi, mustaqil fikrlashi va qo'rquvdan xalos bo'lishi masalasini ilgari suruvchi dolzarb asar sifatida ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev I. Erkin so'z mas'uliyati // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – 1989.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish: O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2007.
3. Xolmirzayev Sh. Saylanma. 1-jild: Hikoyalar. – Toshkent: Sharq, 2005.
4. Yo'ldoshev Q., Yo'ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.